

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA TURIZM SOHASINING RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Xoldorova Gulbahor Mixliboyevna

Jizzax DPU Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dotsenti, xoldorovaguli@gmail.com

Bo'ronova Gulhayo Isomiddin qizi

Jizzax DPU Geografiya yo`nalishi talabasi buronovagulhayo57@gmail.combosqich talabasi

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri sifatida rivojlana boshladi. Turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi soha, balki milliy madaniyat va qadriyatlarni dunyoga tanitishda ham muhim vositadir. So'nggi yillarda Prezident tashabbusi bilan sohaga oid qabul qilingan qonunlar, farmonlar va strategiyalar orqali O'zbekistonda turizmning yangi bosqichi shakllanmoqda. Mazkur maqolada turizm sohasining hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolar va ularning yechimlari, shuningdek, istiqbolli yo'nalishlar ilmiy tahlil qilinadi. Xususan, ekologik, ziyorat, gastronomik va hududiy turizm turlari asosida turizm salohiyatining oshirilishi tahlil etiladi. Maqola yakunida amaliy tavsiyalar ham beriladi.

Kalit so'zlar: turizm, O'zbekiston, iqtisodiy rivojlanish, turizm strategiyasi, ziyorat turizmi, ekologik turizm, madaniy meros, turizm infratuzilmasi, turizm salohiyati, davlat siyosati.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Xholdorova Gulbahor Mikhliboyevna

*Associate professor of the Department of geography and economic knowledge of Jizzakh DPU,
xoldorovaguli@gmail.com*

Burunova Gulhayo Isomiddin kizi

Student Of The Geography direction of Jizzakh DPU buronovagulhayo57@gmail.combosqich student

Annotation: After the independence of the Republic of Uzbekistan, the tourism sector began to develop as one of the most important sectors of the country's economy. Tourism is not only an area of economic benefit, but also an important tool in introducing national cultures and values to the world. In recent years, a new stage of tourism in Uzbekistan has been formed through laws, decrees and strategies adopted on the initiative of the president regarding the industry. This article will scientifically analyze the current state of the tourism industry, development trends, existing problems and their solutions, as well as promising areas. In particular, on the basis of ecological, pilgrimage, gastronomic and territorial types of tourism, an increase in tourism potential is analyzed. At the conclusion of the article, practical recommendations are also given.

Keywords: tourism, Uzbekistan, economic development, tourism strategy, pilgrimage tourism, ecological tourism, cultural heritage, tourism infrastructure, tourism potential, public policy.

KIRISH QISM

Bugungi globallashuv va iqtisodiy integratsiya sharoitida turizm sohasining rivojlanishi har bir davlat uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston kabi boy tarixiy meros, noyob tabiiy go'zalliklar va milliy qadriyatlarga ega davlatda turizm nafaqat iqtisodiy foyda keltiruvchi tarmoq, balki xalqaro imijni shakllantiruvchi omil sifatida ham qaralmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda turizm sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilib, bu borada qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, "2023–2026 yillarda turizmni rivojlantirish strategiyasi", elektron viza tizimi, yangi aviareyslar, mehmonxonalar qurilishi va boshqa infratuzilma loyihalari turizm sohasining keng rivojlanishiga turtki bo'lmoqda. Mazkur maqolada O'zbekiston turizm sohasining zamonaviy tendensiyalari, rivojlanish istiqbollari, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar bayon qilinadi.

Asosiy qism (Main part)

Turizm sohasining hozirgi holati va asosiy ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi hududida 8 mingdan ortiq tarixiy obidalar mavjud bo'lib, ularning aksariyati YuNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan. So'nggi yillarda davlat tomonidan turizm sohasiga alohida e'tibor qaratilib, 2019-yilda "Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi" negizida "Turizm va madaniy meros vazirligi" tashkil etildi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda mamlakatga 6 milliondan ortiq xorijiy sayyoh tashrif buyurgan. Bu ko'rsatkich 2020–2021-yillardagi pandemiya davridagi inqirozdan so'ng sezilarli o'sishni anglatadi. Turizm sektori yalpi ichki mahsulot (YaIM)da 2,5 foiz ulushni egallab, mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutmoqda. Turizm infratuzilmasining rivojlanishi

O'zbekistonda turizm infratuzilmasini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, aeroportlar, temir yo'l va avtomobil yo'llari, mehmonxonalar, madaniy va dam olish markazlari tarmog'ining kengaytirilishi soha rivojiga katta turtki bermoqda. So'nggi yillarda Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlarda zamonaviy xalqaro aeroportlar, yirik mehmonxonalar va sayyohlik markazlari qurildi. Jumladan, 2022-yilda Samarqand shahrida ochilgan "Silk Road Samarkand" (2022-yilda Samarqand shahrida foydalanishga topshirilgan "Silk Road Samarkand" xalqaro turizm majmuasi O'zbekistonning zamonaviy turizm salohiyatini namoyon etuvchi yirik loyihalardan biri hisoblanadi. Ushbu kompleks xorijiy sayyohlar uchun yuqori darajadagi xizmatlarni taqdim etib, xalqaro miqyosdagi forumlar, ko'rgazmalar va tadbirlarni o'tkazish imkoniyatini yaratmoqda.) turizm kompleksi mintaqaviy va xalqaro e'tiborni tortdi.

Investitsiyalar va davlat yordami:

Turizm sohasiga mahalliy va xorijiy sarmoyalarni jalb etish maqsadida soliq imtiyozlari, yer ajratish va boshqa preferensiyalar joriy etilgan. Masalan, xorijiy investorlar uchun "bir darcha" tamoyili asosida turizm loyihalarini amalga oshirish soddalashtirilgan. Bundan tashqari, "Ipak yo'li" turizm universiteti, "Ziyorat turizmi" ilmiy-tadqiqot markazlari va turizm kollejarining faoliyati bu sohadagi kadrlar salohiyatini oshirishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda ichki turizmni rivojlantirish bo'yicha ham muhim qadamlar tashlandi. Aholining turizm xizmatlaridan foydalanishini rag'batlantirish maqsadida "Mehrli turizm" kabi dasturlar joriy etildi. Jizzax viloyatida ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, viloyatning tog'li hududlariga Baxmal, Zomin, Forish, G'allaorol, Yangiobod tumanlari kiradi. Jizzax viloyatida Zomin davlat qo'riqxonasi, Zomin milliy bog'i, Zomin tumani o'rmon xo'jaligi, Forish tumani o'rmon xo'jaligi, Mojurum archasi (Sharq biotasi), Xonbandi to'g'oni, Nurota davlat qo'riqxonasi, G'allaorol tumani o'rmon xo'jaligi kabi turistik maskanlari mavjud. Hududda turistlarni o'ziga jalb etadigan tabiiy maskanlar, manzaralar, tabiat obidalar, davolash-sog'lomlashtirish turizmi (rekreatsion), sog'lomlashtirish maqsadida hamda turl markazlari mavjud. Jizzax viloyatidagi bu turistik maskanlardan foydalanuvchi sayyohlar va dam oluvchilar soni kun sayin oshib viloyat iqtisodiyotiga katta samara keltiradi.

O'zbekistonda ziyorat turizmni rivojlantirish uchun ko'pgina tarixiy, madaniy, etnografik, diniy va ekologik obyektlar mavjud bo'lib, mamlakatimiz turizm turlarini rivojlantirish bo'yicha katta imkoniyatlarga ega. O'zbekistonda ham aziz avliyolar yashab, dafn etilgan qadamjolar, ziyorat maskanlari ko'p [4]. Ko'pgina avliyolarning dafn etilgan joylari va qabrlari qaytadan tamirlanib, asl holatiga keltirilmoqda. Ular qatoriga Bahoviddin Naqshbandiy, G'ijduvoni, Imom al-Buxoriy, Mahtumi A'zam, Shohizinda, Motrudiy, Hakim at-Termiziy, Zangiota kabi aziz avliyolar va imomlar maqbaralari musulmon ahlining ziyorat qiladigan va ma'naviy ruhlanadigan joylariga aylantirildi. Ayniqsa, Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro ahamiyatga ega bo'lib ziyoratgoh atrofida zamonaviy qulayliklar yaratilmoqda. Chunki, bu ziyoratgohlar musulmon olamida Makka va Madina shaharlaridan keyin eng muhim sajdagoh hisoblanadi. Imom Al-Buxoriy majmuasini muhim ziyoratgohga aylantirish xalqaro Ziyorat turizmi yo'nalishida esa Imom al Buxoriy, Bahouddin Naqshband kabi buyuk allomalar Bu esa nafaqat mahalliy, balki musulmon davlatlaridan kelayotgan sayyohlar sonini oshirmoqda. Bundan tashqari xalq me'morchilik obidalar va muzeylarga tashrif buyurish, milliy qadriyatlar, mahalliy folklor va hunarmandchilik bilan tanishish kabi yo'nalishlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekistonda turizm sohasi jadal rivojlanib, iqtisodiyotning barqaror tarmoqlaridan biriga aylanish arafasida. Statistik ma'lumotlar va xalqaro tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, turizm eksportga yo'naltirilgan xizmatlar orasida yetakchi o'rin egallamoqda. Shunga qaramay, sohaga oid bir qator tizimli muammolar mavjud: xizmatlar sifati ba'zi hududlarda past darajada qolmoqda, logistika va kadrlar bilan ta'minlanish muammolari saqlanib turibdi.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyati nihoyatda boy va xilma-xildir. So'nggi yillarda ushbu sohani rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, infratuzilma loyihalari, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ta'lim tizimini takomillashtirish orqali sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Shu bilan birga, mavjud muammolarni tizimli hal qilish orqali mamlakatni Markaziy Osiyodagi yetakchi turistik markazga aylantirish imkoniyati mavjud. Maqolada keltirilgan taklif va tavsiyalar asosida amaliy chora-tadbirlar ko'rilsa, bu

nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy taraqqiyotga ham xizmat qiladi. Muhokamalar natijasida aniqlanishicha, bu muammolarni bartaraf etish uchun hududiy turizm dasturlarini ishlab chiqish, mahalliy brendlar yaratish, axborot texnologiyalarini faol joriy etish va turistik marketingni kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmoni "2022–2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yangi strategiyasi to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirligining rasmiy statistik axborotlari, 2023.
3. "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi (2019–2025 yillar)".
4. Hasanov B.X. "Turizm iqtisodiyoti", Toshkent: Iqtisodiyot, 2021.
5. Safarov A.R. "O'zbekistonda ziyorat turizmi istiqbollari", Ilmiy-amaliy jurnal, 2022.
6. Karimova N. "Turizm infratuzilmasi va investitsiyalar", Innovatsion rivojlanish jurnali, 2021.
7. Qosimova G.N. "Ichki turizm va hududiy rivojlanish", Monografiya. Toshkent, 2020.
5. Gapparov, A., & Kholdorova, G.(2020). Population Systems In The Reclaimed Lands Of The Republic Of Uzbekistan. Архив Научных Публикаций JSPI.
6. Abdunazarov, U., & Sabitova, N., Kholdorova, G . Morphological features of buried Soils of loess formations of the prytashkent region of Uzbekistan. Архив Научных Публикаций JSPI.
7. Kholdorova, G. M. (2020). Changes In Natural Geographical Processes In The Mirzachul Region Under The Influence of The Sardoba Reservoir. European Journal o f Molecular & Clinical Medicine, 7(3), 3136-3147
8. Xudoyorov A., Abdurasulov B. "Ziyorat turizmida logistika»o'quv qo'llanma. Toshkent "Mumtoz so'z»nashriyoti-2019. 68 bet.
9. Хакимов, К. М., Холдорова, Г. М., & Эрматова, Н. Н. К. (2017). Принципы и основные положения номинации географических объектов. Проблемы современной науки и образования, (4 (86)).
10. Холдорова Г. Мирзачўл табиий ўлкаси ландшафтларининг ўзгаришида шамолнинг аҳамияти, Экология хабарномаси 2021 №2(233)